

4K MODEL ASOSIDA O'QITISHNING AFZALLIGI*Tursunova Nazira**Navoiy viloyat Navbahor tuman MMTBga qarashli 17-umumiy o'rta ta'lim maktab Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolani bugungi kunga muhim ahamiyati darslarni jahon tajribasiga asoslanib chiroyli tashkil etish yuzasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kolloboratsiya, kommunikativlik, Kreativ fikrlash, kritik fikrlash

Kirish

Bugungi kunda ta'lim iqtisodiy, rivojlanish, ijtimoiy, ma'naviy intellektual yuksalish fuqorolik jamiyati hamda yoshlarni pozitiv dunyoqarashini rivojlantirishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. "O'zbekiston 2030" pedagogik ta'lim oldida maqsadlarni belgilab qo'ydi. Layoqatli individual psixologik xususiyatga ega bo'lan o'quvchilar bilan ishlashga qaratilgan. Zamonaviy ilm-fanning o'ziga xosligi, nazariy va amaliy bilimlarni hayotga qo'llay oladigan kadrlarni yetishtirish yuzasidan asosiy vazifalarni belgilab berdi.

Maktab va maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 5-11-sinf Informatika darsliklari yangidan "4K" modeli asosida tayyorlandi. "4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tgan muhimi zamonaviy yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning nazariy bilim olishiga etibor qaratganmiz. Yangi kitoblarda o'quvchi mustaqil talim olish bilan birga mavzuni jamoada ishlash uchun mashqlar, mustaqil ishlash uchun amaliy mashqlar berilgan va darsliklar sinflar kesimida uzviy bog'lanib oddiydan murakkabga tomon yo'naltirilgan. Zamonaviy ta'lim informatika va axborot texnologiyalari darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish lozimligini taqazo etadi. Ta'limni isloh qilish esa tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog'liq. Ana shunday yondashuvlardan biri "4K" modelidir. Kolloboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash kabi tushunchalarni qamrab olgan "4K" modeli o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi, tanqidiy, kreativ va ijodiy fikrlash, jamoada ishlash kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirish va takomillashtirishda muhim onildir. Yangi tajriba bilan esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga ko'proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, to'rt asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

Kollaboratsiya – darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Kommunikativlik – darsliklar o‘quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganadilar.

Kreativ fikrlash – darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadilar, innovatsion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Kritik fikrlash – ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtai nazarini shakllantiradilar.

Informatika darslarida bilimlarni mustaqil o‘rganish amaliy ko‘nikmalarni yakka va onlay o‘rganish muhiti ham yaratilgan. Bu darsdan tashqari o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlaridan samarali foydalanishlariga ham zamin yaratib bermoqda. Yangi darsliklardagi amaliy mashg‘ulotlar hayotga bog‘langan holda rasmi shaklda berilgan, o‘quvchi mustaqil o‘z-o‘zini baholashi va jamoada hamkorlikda ishlashga undaydi.

Darsliklardagi mavzulani turli strategiyalarga asoslab o‘tish qulay jumladan guruhda ishlash, internetdan foydalanib tadqiqot olib boorish, juftliklarda ishlash, ma’lum bilim va ko‘nikmalarni yangilari bilan bog‘lash, o‘zini o‘zi baholash kabi metodlardan foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr “ O‘zbekiston-2030” strategyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli farmoni.
2. Pedagogik kompetentlik va kreativlik Muslimov N.A, Usmonboyeva M.H, Sayfurov D.M, To‘rayev A.B – Toshkent 2015-yil.